



NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022-YIL YANVAR-FEVRAL







Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-fevral)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1953,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 105,5 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (79,4 %) ni tashkil etdi.



B– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat
D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*% da (2022- yil yanvar-fevral)




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning –35,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 3,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 0,3 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -70,1 % ga kamayganligi kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da (2022- yil yanvar-fevral)




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(yil boshidan I- II oylar, % da)

2021- yil, % da

2022- yil, % da






Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-fevral)

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat (2022- yil yanvar-fevral)



2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1549,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,4 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2022-yil yanvar-fevral)




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida - 2,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 7,2 % (7,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 12,9 % (12,0 %) va quyi texnologiyalisi - 78,0 % (78,2 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O‘rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,0 % (2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,4 % (2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,4 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,7 % (2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 99,4 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,5 % (2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati, % da (2022- yil yanvar-fevral)

2022 yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,1 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan -12,1 % ga kamaygan), 3,1 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (26,5 %) ishlab chiqarilib o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Yumshoq bug'doy va spelta uni




2020- y. 2021- y. 2022- y.

Paxta tolasi



2020- y. 2021- y. 2022- y.

O'simlik yog'i



2020- y. 2021- y. 2022- y.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-fevral)

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	11,4	10,1	-1,3
Aroq – ming litr 100 % spirt	0,0	0,0	0,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0,0	0,0	0,0
Vino, ming litr	0,0	0,0	0,0
Un, ming tonna	21,5	20,2	-1,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	2,2	2,8	0,6



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (2022- yil yanvar-fevral)




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 376,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (19,3 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 35,5 % ga o‘sishi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I-II oylar, % da)

2021- yil, % da



2022- yil, % da




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1113,2	856,0	-257,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	17,6	15,3	-2,3




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish






Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I-II oylar)



2021
yilda

2022
yilda



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- fevral	2022- yil yanvar- fevral	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	11,8	14,5	2,7


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- fevral	2022- yil yanvar- fevral	Farqi +/-
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so‘m	1,8	1,3	-0,5
Shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m	3,8	4,0	0,2
To‘qimachilik chiqindilari, tonna	0,0	0,0	0,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 22,9 % ga, shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 5,3 % ga ortganligi, oqava suvlarni shlami 27,8% hamda kamayganligi kuzatildi.







Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 949,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 48,6 % ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 43,8 % ni, shuningdek, Chust tumani 9,7 % ni, Namangan tumani 9,0 % ni, Kosonsoy tumani 7,7 % ni, Uchqo'rg'on tumani 6,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kosonsoy (131,9 %), Uchqo'rg'on (130,8 %), Yangiqo'rg'on (125,8 %), Uychi (111,2 %), Chortoq (105,4 %) tumanlarida hamda Namangan shahar (103,9%) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2022 yilning yanvar-fevral

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 43,3 % ni, shuningdek, Chust tumani 13,2 % ni, Kosonsoy tumani 10,7 % ni hamda Namangan tumani 9,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Kosonsoy (137,6 %), Yangiqo'rg'on (118,6 %), Namangan (115,8 %) hamda Chust (104,0 %) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2022- yilning yanvar-fevral)

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 44,7 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 14,3 % ni, Namangan tumani esa 8,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (230,5 %), Uchqo'rg'on tumani (164,2 %) hamda Uychi tumanida (124,4 %) qayd etildi.



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (1 753,2 ming so'm), Namangan shahrida (1 114,0 ming so'm), Uchqo'rg'on (905,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (319,0 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (114,6 ming so'm), Chortoq (150,6 ming so'm), Pop (248,2 ming so'm) va Mingbuloq (248,9 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 37,3 % i) hamda To'raqo'rg'on (20,7 %), Uchqo'rg'on tumani (8,2 %) va Namangan tuman (7,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (1,3 %) hamda Chortoq (1,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
2022- yilning yanvar-fevral oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 404,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Mingbuloq (69,3 %) va Uychi (62,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush Uchqo'rg'on (8,6 %), To'raqo'rg'on (10,3 %), Chust (26,5 %) va Namangan (32,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2022- yil 1-mart holatiga ko‘ra)


Bugungi kunda viloyatda 7 161 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2 654 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,1 % i) Namangan shahriga, 568 tasi (7,9 %) Uychi tumaniga, 549 tasi (7,7 %) Kosonsoy tumaniga, 530 tasi (7,4 %) Chust tumaniga, 525 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 472 tasi (6,6 %) To‘raqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



faoliyat yuritayotgan

yangi tashkil etilgan